

Baxtiyor ota-onalar va bolalar uchun

129

ta yaxshi tarbiya tamoyili

1

Asosiy tamoyil

Bolalar hurmat qilinishi kerak bo‘lgan mustaqil shaxslardir

2

Tamoyillarning joriy etilishi

- Yaxshi tarbiya ota-onalar bolalarning rivojlanishini va o‘zlarining ota-ona sifatidagi rolini tushunishdan boshlanadi
- Ota-onalar va bolalar o‘zaro ishonchga ega bo‘lishlar kerak.

9

Joriy etish usullari



Bolangizni tushuning

Har bir bola o‘zining temperamenti va xarakteriga ega. Bolalarning o‘sishi va rivojlanishiga har xil baho beriladi. Shuning uchun bolangiz o‘zini bu borada qanday his etishi va nima o‘ylashiga yaxshilab e’tibor bering.



O‘zingizga nazar tashlang

Ota yoki ona sifatida o‘z kam-u ko‘stingizni yaxshi bilgan holda o‘zingizdan qanday qilib yaxshiroq ota/ona bo‘lishim mumkin deb so‘rang.



Qarashlarni o‘zgartiring

Qarashlaringizni o‘zgartiring. Farzandingizning muammoli xatti-harakatini tuzatishni talab qiladigan darajada muammoli deb hisoblaysizmi?



Birga ulg‘aying

Farzandingizning ulg‘ayishiga qarab, ota-ona rolingizni takomillashtirib boring.



Bolangiz bilan vaqt samarali o‘tsin

Vaqtni birga o‘tkazayotgan payt, iltimos, to‘liq e’tiboringizni bolangizga qarating.



Tinglang va e’zozlang

Farzandingiz o‘zini qadrli, uni eshitishadigan va tushunishadigan deb his etishi uchun uni diqqat bilan tinglang.



Barqarorlik

Farzandingiz tushunadigan cheklovlar va chegaralarni belgilang hamda intizom qoidalariga rioya qiling.



Xatolaringizni tan oling

Siz ota-ona sifatida ba’zida xato qilishingiz mumkinligini tan oling va farzandingizdan kechirim so‘rang.



Yordam so‘rang

Qiyinchiliklarga duch kelganingizda atrofingizdagи odamlardan yoki mutaxassislardan yordam so‘rang.